



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

SALMONELLYOZ ALOMATLARI, ASORATLARI, TASHXISLASH, DAVOLASH VA OLDINI OLİSH

Toshmatova Shaxnoza Abdusattor qizi

Sodiqova Nigora Xusanboy qizi

Usmonov Mavlxon Mansurxon o‘g‘li

Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya:

Salmonellyoz — bu salmonella avlodiga mansub bakteriyalar tomonidan keltirib chiqariladigan, fekal-oral mexanizm bilan yuqadigan, asosan oshqozon-ichak traktining zararlanishi bilan kechadigan o’tkir yuqumli kasallik hisoblanadi. Kasallikning kechish tabiatи har bir holatda farq qilib, alomatlarsiz shikastlanishdan to toksik va degidratatsion shok darajasigacha boradi. Patogenlar organizmga asosan ifloslangan yoki noto’g’ri qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli natijasida kiradi. Salmonellyoz KXT 2010 (kasalliklarning xalqaro tasnifi 2010-yil) bo’yicha — A02 kodiga ega.

Kalit so’zlar: salmonella, bakteriyalar, diareya, degidratsiya, infeksiya, epedemiologiya, antibiotic, immunitet,

Salmonellyoz — butun dunyo bo’yalb tarqalgan ichak infektsiyasi. So’nggi 10 yil ichida bemorlarning turli guruhlari orasida kasallik tarqalishining o’sish tendentsiyasi kuzatilmoxda. Infektsiya manbai hayvonlar va odamlar sanaladi (bemor va bakteriya tashuvchisi). Salmonellyozning tarqalishida asosiy rol infektsiya alomatlarsiz (bakterial tashish) yoki aniq namoyon bo’lishi mumkin bo’lgan hayvonlar hissasiga to’g’ri keladi.

Odamlar uchun uy hayvonlari, shuningdek go’sht uchun mo’ljallangan qoramol va cho’chqa kabi chorva hayvonlari katta xavf tug’diradi. Kasallikning epidemik shakllari rivojlanishida yuqish darajasi parrandalar orasida 50% dan oshishi mumkin, cho’chqalarda — 2,8-20%, qo’y va echkilarda — 1,8-4,4%.

Ko’pincha ichak infektsiyalari ijtimoiy-iqtisodiy sharoit noxush bo’lgan, sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilish ko’rsatkichi past bo’lgan hududlar uchun xos bo’lgan kasallik deb hisoblanadi. Biroq bu salmonellyozga taalluqli emas, chunki u ko’pincha sanitariya-gigiena yaxshi tashkil etilgan katta shaharlarda va kichik aholi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

punktlarida ham, ya'ni hayvonlar yoki oziq-ovqat mahsulotlari mavjud bo'lган joylarda bir xilda uchraydi.

Salmonellyoz xavfli yuqumli kasallik bo'lib, o'limga olib kelishi mumkin. Umumiyo'lim darajasi 1-3% ni tashkil qiladi. Kasallikdan ko'proq bolalar aziyat chekadi va ularda kasallikning og'ir shaklda kechish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi, buning natijasi o'laroq 2-3 yoshgacha bo'lган chaqaloqlar orasida o'lim darajasi 3-5% gacha yetishi mumkin. Bundan tashqari, kasallikning o'tkir shaklida bemorlarning 1-2 foizida o'lim kuzatilsa, infektsiyalanganlarning 20 foizida kasallik alomatlarsiz kechadi.

Salmonellyoz tezda epidemik tus olishi bilan xavfli sanaladi, u sporadik holat va epidemik chaqnashlar sifatida qayd etiladi, ularning kelib chiqish manbaini aniqlash esa juda qiyin vazifadir. Kasallikning epidemiologik xavfi issiq fasllarda kuchayadi: bahor va yoz faslining oxirlari patogenning faol tarqalishi uchun eng qulay vaqt hisoblanadi.

Bundan tashqari, salmonellyoz tibbiy muassasalarda bemorlar orasida tarqalishi mumkin. Kasalxonalarda infektsiyaning tarqalishi palatalarning to'lib ketganligi, bemorlarning palatadan palataga asossiz harakatlanishi, zarur yordamchi vositalarning yetishmasligi, bir martali ishlatalidigan vositalardan qayta foydalanish, to'shaklarga qayta ishlov berish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Salmonellyozning bu shaklda tarqalishi ko'proq bolalar shifoxonalariga xosdir.

Tanadagi shikastlanish darajasi va vektori, alomatlarning namoyon bo'lisliga qarab, kasallik quyidagicha tasniflanadi:

- **Lokalizatsiyalangan (gastrointestinal):** gastritik, gastroenteritik yoki gastroenterokolitik variantda kechadi. Kasallikning nisbatan yengil shakli sanalib, infektsiyaning ichakdan tashqariga o'tishi kuzatilmaydi. Isitma, qorinda spastik og'riqlar, ko'ngil aynishi va qayt qilish, ich ketishi bilan kechadi. Inkubatsion davri 72 soatdan oshmaydi. Organizmi kuchsiz bo'lган bolalarda esa salmonellalarning organizmga ovqat bilan tushishidan 2-4 soat o'tgach namoyon bo'ladi.
- **Tifsimon yoki septik variantdagi general (umumlashgan) shakli:** qo'zg'atuvchining ichakdan tashqariga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bunda salmonellalar qon oqimi bilan butun organizm bo'ylab tarqaladi va turli a'zo va to'qimalarga kirib boradi. Infektsiyalanish umumlashgan tus olishi sababli kasallik og'ir kechadi.
- **Tashuvchanlik (bakteriyalarini ajratish):** o'tkir, surunkali yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Odatda kasallikning bu turi salmonellyozdan tuzalgan bemorlarda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qayd etiladi. Bemorlarda kasallikning hech qanday alomatlari kuzatilmaydi, biroq ular hali ham kasallikni boshqalarga yuqtirishi mumkinligi bilan ajralib turadi.

Kasallik *Salmonella* avlodiga mansub bakteriyalarning turli xil serotiplari tomonidan chaqiriladi. Infektsiya manbalari asosan uy hayvonlari va parrandalardir, ammo odam (bemor, tashuvchi) qo'shimcha manba sifatida ham ma'lum rol o'ynaydi. Uzatish mexanizmi — fekal-oral.

Yuqish yo'llari:

- Zararlangan chorva mollari va parrandalardan olingan mahsulotlar iste'moli;
- Kontakt-maishiy yo'l;
- Ba'zan suv orqali;
- Chang-havo yo'li orqali.

Kasallik yuqishi hayvonlarni parvarishlash, go'shtni qayta ishslash zavodlarida so'yish jarayonida, shuningdek, tirikligida yoki o'limdan keyin infektsiyalangan hayvon go'shtini iste'mol qilishda uchraydi. Sut va sut mahsulotlari ham infektsiya manbai sanaladi.

Mushuk va itlarning 10 foizga yaqinida salmonellyoz tashuvchanligi qayd etiladi. Sinantrop kemiruvchilarda bu ko'rsatkich 40% gacha yetadi. Yovvoyi ko'cha qushlarida (kabutarlar, chumchuqlar, chaykalar) orasida kasallik keng tarqalgan. Qushlar najasi bilan atrof-muhit ob'yektlarini ifoslantirib, patogenning tarqalishiga yordam beradi.

Odamlar patogenning ma'lum turlari — *S. Typhimurium* va *S. Haifa* manbai sanaladi, ayniqsa kasalxona sharoitida. Kontagioz infektsiyalanish salmonellalarga ayniqsa moyil bo'lган bir yoshgacha bo'lган bolalar uchun xavf tug'diradi.

Bemorda kasallikni boshqalarga yuqtirish mumkin bo'lган davrning davomiyligi kasallikning kechishi va muddatini bevosita belgilaydi. Hayvonlarda u bir necha oy, odamlarda esa 2-3 kundan 3 haftagacha davom etishi mumkin. Rekonvalestsent, ya'ni yashirin tashuvchanlik ba'zan yillab davom etishi kuzatiladi.

Salmonellyoz borasida eng xavfli mahsulot tovuq tuxumi sanaladi. Infektsiyalangan mahsulotlar, asosan go'sht (qiyma go'sht, go'sht mahsulotlari, go'shtli salatlar, pishirilgan kolbasa) salmonellalarning ko'payishi uchun qulay sharoitda saqlanganida noto'g'ri pishirish natijasida kasallanish kuzatiladi.

Maxsus chorvachilik komplekslari va fermalarida, parrandachilik fermalarida patogenning suv orqali yuqishi xarakterlidir. Kasalxonalarda, ayniqsa bolalar tibbiy



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

muassasalarida va tug'ruqxonalarda kasallik tarqalishining kontakt-maishiy usuli ustunlik qiladi.

Shahar joylarda havo-chang tarqalish yo'li mavjud bo'lib, bunda yashash va ovqatlanish joylarini najas bilan ifloslantiradigan yovvoyi qushlar katta rol o'ynaydi. Organizmning holati, yoshi va jinsidan qat'iy nazar, odamlarning Salmonellaga sezuvchanlik darajasi juda yuqori, ya'ni organizm patogen bilan aloqada bo'lishining deyarli 98% hollarida kasallanish sodir bo'ladi. Immunitetning holati kasallikning davomiyligiga ta'sir qilishi mumkin. Bakteriyalarga nisbatan hosil bo'ladigan immunitet qisqa muddatli sanaladi (5-6 oy).

Salmonellyozning klinik tasviri uning turini aniqlaydi va kasallikni boshqa yuqumli kasallikkardan farqlash imkonini beradi. Kasallikning eng keng tarqalgan shakli — bu gastroenteritik turi bo'lib, u suvsizlanish, umumi intoksikatsiya va isitma bilan birga kechadi. Intoksikatsiya belgilari tobora kuchayib, bosh og'rig'i va mushaklar og'rig'i, zaiflik va mehnat qobiliyatining yo'qotilishigacha olib keladi.

Bundan tashqari, salmonellyoz o'zini kindik sohasi va qorinning yuqori qismlarida, yo'g'on ichak bo'y lab seziladigan og'riq bilan namoyon qiladi. Og'riq spastik, o'zgaruvchan tabiatli bo'lib, yengil darajadan kuchli og'riqqacha yetadi. Bemorni ko'ngil aynishi va yengillik bermaydigan takroriy qayt qilishlar bezovta qiladi.

Diareya (ich ketishi) — salmonellyozning o'ziga xos belgisi bo'lib, najas ko'rinishining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi (suvi, badbo'y hidli, ko'pikli, yashil rangga bo'y algan). Qayt qilish va diareya fonida suvsizlanish sindromi rivojlanadi. Ko'rik vaqtida terining oqorganligi, qorin dam bo'lishi, og'izning quruqligi diqqatni tortadi. Til qalin karash bilan qoplangan bo'ladi. Yurak auskultatsiyasida taxikardiya aniqlanadi, puls biroz to'lib uradi. Kuchli suvsizlanish oyoqlarda talvasalar yuzaga kelishi bilan birga kechadi.

Salmonellyozning keyingi belgilari bemorda kasallik qaysi shaklda kechayotganiga qarab o'zgarishi mumkin.

- **Gastroenterokolitik turi** kasallik boshlanishining 2-3 kuniga kelib hojat chiqarishning kamayishi bilan birga kechadi. Najasda shilliq, qon aralashmalari aniqlanadi. Ichakda spazm aniqlanadi, palpatsiyaga og'riq bilan javob beradi, tenezmlar qayd qilinadi.

- **Gastritik turi** tenezm va ich ketishisiz holda o'tadi. Tana harorati subfebril darajadan yuqori darajalargacha o'zgarib turadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

• **Umumlashgan shaklning** alomatlari xarakterli farqlarga ega. Masalan, tifga o'xshash turi klinikasi ich terlama klinikasiga juda o'xshash, bunda ko'ngil aynishi, quşish va diareya bilan birga to'lqinli yoki turg'un isitma paydo bo'ladi. Shuningdek taloq va jigarning sezilarli kattalashishi kuzatiladi, terida gemorragik toshmalar toshadi. Qon bosimi pasayishi, bradikardiya aniqlanadi.

• **Septik turida** odatdiy oshqozon-ichak klinikasidan tashqari, bemorda uzoq davom etadigan kuchayib turuvchi isitma, varaja, taxikardiya, kuchli terlash, taloq va jigarning kattalashishi kuzatiladi.

Kasallikning boshlanishi birinchi alomatlar paydo bo'lган paytdan boshlab klinik jihatdan hisobga olinadi, ammo aslida bu kasallik hali o'zini namoyon qilmagan inkubatsion davrdayoq boshlangan bo'ladi. So'ng, birinchi klinik belgilar paydo bo'lgach, infektsion jarayonning faol rivojlanish bosqichi boshlanadi. Patogenning tanadagi kontsentratsiyasi pasayishi va o'tkir alomatlar asta-sekin so'nishi bilan bemorning tiklanishi haqida gapirish mumkin, ammo bu salmonellyozning barcha shakllariga uchun o'rinni emas.

Bolalarda inkubatsiya davrining davomiyligi organizmning chidamliligiga bog'liq. Odatta bu bosqich infektsiya oziq-ovqat mahsuloti bilan yuqqach bir necha soatdan so'ng, agar patogen organizmga maishiy-kontakt yo'l orqali kirgan bo'lsa, 3-4 kungacha davom etadi. Organizmga kirgan infektsiya va mikrobiologik toksinlar kontsentratsiyasi qancha ko'p bo'lsa, patogenning inkubatsiya davri shuncha qisqa bo'ladi va kasallikning og'irroq kechishi kutiladi.

Kattalarda ham kasallikning inkubatsiya davri bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi. Umuman olganda, bemorlarning ushbu toifasi kontakt-maishiy infektsiyaga kamroq moyil bo'ladi.

Odam organizmda patogenning ma'lum bir kontsentratsiyasi bo'lsa-yu, ammo zararlanishning aniq tashqi belgilari kuzatilmasa, bu holda kasallikning surunkali kechishi haqida gapiriladi. Surunkali shakl shuningdek bakteriya tashuvchiligi deb ham ataladi. Salmonellyozga chalingan odamda bakteriyalarni ajratish davri o'rtacha 3 oy, ba'zan uzoqroq davom etadi.

Agar najasda patogen bir yoki ikki marta aniqlansa, shundan so'ng test natijalari salbiy natija ko'rsatsa, bemorda vaqtinchalik surunkali tashuvchanlik kuzatiladi. Bunda bemorda shikastlanishning serologik, klinik va kolonoskopik belgilarani aniqlanmaydi. Bunday tashuvchanlik organizmga oz miqdorda, virulentligi zaif bo'lган bakteriyalar tushishi natijasida rivojlanishi mumkin.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Foydalilanigan adabiyotlar

1. <https://mymedic.uz/kasalliklar/infektsion/salmonellyoz>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Salmonellyozlar>
3. <http://filtrum.uz/ru/poleznye-materialy/salmonellez>



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

E-CONFERENCE
SERIES